



JINOIY JAVOBGARLIK TUSHUNCHASI VA UNING ASOSLARI

IIV Surxondaryo akademik litseyi

Huquqshunoslik fani o'qituvchisi

Ko'chkinova Adolat Gulmurod qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola Jinoyat qonunchiligida jinoyat tushunchasi, jinoiy javobgarlik va uning asoslariga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Jinoyat, javobgarlik, jazo, ayb, huquqbuzarlik, yuridik javobgarlik.

Jinoyat uchun javobgarlik tushunchasi Jinoiy javobgarlik huquqiy (yuridik) javobgarlikning bir turi bo'lib, jinoyat huquqining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Jinoiy javobgarlik jinoyat qonunida belgilab qo'yilgan va sud tomonidan jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan javobgarlikni qo'llashdan iboratdir. Shunga muvofiq ravishda jinoiy javobgarlik javobgarlikning boshqa turlari (intizomiy, fuqaroviy, ma'muriy va h.k.)dan eng og'ir shakli hisoblanadi, o'zining mazmuni va huquqiy oqibatlariga ko'ra ulardan farq qiladi. Jinoyat kodeksidan 16-modda. Jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari (1-qism) Jinoyat uchun javobgarlik — jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir. Jinoiy javobgarlik tushunchasi umumiy jihatdan davlat va jinoyat sodir etgan shaxs o'rtasida kelib chiqadigan jinoiy huquqiy munosabat sifatida tushuniladi. Bunda davlatda jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan jinoiy huquqiy ta'sir chorasini qo'llash huquqi vujudga keladi. Jinoiy javobgarlik bir qator huquqiy belgilarga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat: birinchidan, o'z yuridik mazmuniga ko'ra jinoiy javobgarlik huquqiy oqibat keltirib chiqaradi; ikkinchidan, jinoiy javobgarlikni



shaxsning aybi bilan sodir etilgan, ijtimoiy xavfli qilmish vujudga keltiradi; uchinchidan, sud qilmish, jazo yoki boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni qo'llashdek davlatning majburlov shakllarida ifodalanadi; to'rtinchidan, u jinoiy huquqiy munosabatlar doirasida paydo bo'ladi, amalga oshadi va bekor bo'ladi. beshinchidan, faqat sud tomonidan qo'llaniladi. Yodda tuting! Javobgarlik va jazo mohiyati jihatidan boshqa tushunchalar hisoblanadi. Ya'ni javobgarlik nisbatan keng tushuncha bo'lib, jazo javobgarlikning bitta ko'rinishidir. Shunga ko'ra javobgarlikning muqarrarlighi prinsipi jazoning muqarrarlighini anglatmaydi. 31 Javobgarlikni jazodan farqlash uchun uning amalga oshirilish shakllarini tahlil etish lozim. Xususan, jinoiy javobgarlik quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin: 1. Aybdorni jazo qo'llamasdan sud qilish; Masalan, JK 71-moddasida ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, sud tomonidan jazodan ozod qilinishi mumkin. Bunday holatda shaxs jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan bo'lsa-da, sud tomonidan unga jazo tayinlanmaydi. 2. Aybdorga jazo belgilab, ammo uni real ijrosidan ozod qilib sud qilish; JKning 72-moddasiga ko'ra, agar sud ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini tayinlash vaqtida sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va ishdagi boshqa holatlarni e'tiborga olib, aybdor tayinlangan jazoni o'tamasdan turib ham uning xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat'iy fikrga kelsa, shartli hukm qo'llashi mumkin. Bunday holda sud, basharti, belgilangan sinov muddati davomida jazoning shartliligini bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, tayinlangan jazoni ijro etmaslik to'g'risida qaror chiqaradi. Bunday holatda shaxs jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan bo'lib, unga jazo tayinlangan bo'lsa-da, tayinlangan jazo shartli bo'lganligi sababli, u real ijro etilmaydi. 3. Aybdorga jazo belgilab, uni ijro etgan holda sud qilish; Ushbu holat



jinoiy javobgarlikning eng og‘ir shakli bo‘lib hisoblanadi va shaxsga tayinlangan jazo ijro etilishi sharti bilan hukm chiqariladi. Masalan, shaxs besh yil muddatga ozodlikdan mahrum qilindi. Bunday holatda shaxs jazoni real holatda jazoni ijro etish muassasalarida o‘tashi kerak. 4. Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari qo‘llash. Ushbu qoidalar jazo hisoblanmagan majburlov chorasi bo‘lib, ayrim tashqi belgilariga ko‘ra jazo turlariga o‘xshaydi. JKning 88-moddasida voyaga yetmaganlarga qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan uch turdagi majburlov choralari nazarda tutilgan: a) sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan uzr so‘rash majburiyatini yuklash; b) yetkazilgan zararni to‘lash yoki bartaraf qilish majburiyatini yuklash; v) voyaga yetmaganni maxsus o‘quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish. 5. Aybdorga jazo va tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash. JKning 96-moddasiga ko‘ra, alkogolizmga, giyohvandlikka yoki zaharvandlikka yo‘liqqan yoxud aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda ruhiy holati buzilgan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilgan taqdirda, agar tibbiy xulosa mavjud bo‘lsa, sud jazo tayinlash bilan birga ularga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari tayinlashi mumkin. Ushbu qoidani aqli norasolarga nisbatan 32 qo‘llaniladigan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralaridan farqlash lozim. Chunki, aqli norasolik holatida sodir etilgan qilmish jinoyat deb topilmaydi va javobgarlikning shakli hisoblanmaydi. Jinoiy javobgarlik asoslari Shaxsni javobgarlikka tortish uchun qonunda ayrim talablar qo‘yiladi. Ya’ni ma’lum bir faktning sodir etilganligi shaxsni javobgarlikka tortish uchun to‘liq asos bo‘la olmaydi. Jinoyat kodeksidan 16-modda. Jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari (2-qism) Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi. Mazkur tushuncha tahlil etilganida shaxsni javobgarlikka tortish uchun ikkita asos bo‘lishi talab etiladi. Birinchisi, qilmishning jinoyat qonunchiligida nazarda tutilganligi. Mazkur qoida mazmuni JKning qonuniylik prinsipi mohiyatidan kelib chiqadi. Uning mohiyatiga ko‘ra, JKda nazarda tutilgan



qilmishgina jinoyat topilishi mumkinligini va JKda nazarda tutilmagan qilmishni sodir etish jinoyat deb topilmasligi va javobgarlikka sabab bo'lmashligini anglash lozim. Shunga ko'ra, mazkur holat javobgarlikning normativ asosini tashkil etadi. Ikkinchidan, qilmish sodir etilishidir. Bunday holatda shaxsni javobgarlikka tortish uchun yuridik faktning bo'lganligi, ya'ni aniq bir qilmish sodir etilganligi nazarda tutiladi. Mazkur holat esa javobgarlikning faktik asosini tashkil etadi. Demak, shaxsni javobgarlikni tortishning quyidagi asolari mavjud bo'lishi talab etiladi. Normativ asos Faktik asos Yodda tuting! Jinoyat tarkibi jinoyat qonunchiligida aniq bir ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb ta'riflovchi eng kam va yetarli obyektiv va subyektiv belgilar yig'indisidir. Jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilari o'rtasida o'zaro aloqa va uzviy bog'liqlik mavjud. Har bir belgi boshqalari bilan birgalikda mavjud bo'ladi va ajralmas bir butunlikning zaruriy qismini tashkil qiladi. Qilmishda jinoyat tarkibi belgilari yig'indisining mavjudligi bu jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos borligini anglatadi. Qilmishda qonunda ko'rsatilgan tarkibiy belgilardan birining yo'qligi jinoyat tarkibining yo'qligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jinoyat huquqi: O'zbekiston Respublikasi IIV akademik litseylari uchun darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. T.R. Kuchkarov O'.M. Otaev XIII bob M.M. Qalandarov bilan hammualliflikda M.M. Qalandarov – yuridik fanlar nomzodi, dotsent O'.M. Otaev bilan hammualliflikda M.M. Xaydarov – yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent M.M. Xaydarov
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 1994.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023.